

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

6/2023

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Djurayev Risbay Xaydarovich
Abdullayeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Kamilova Nodira
Karlibayeva Guljahan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtozayeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ASOSLARI

Jabborova Onaxon Mannapovna, ChDPU, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish asoslari tahlil qilingan va metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Tayanch so'zlar: *texnologiya, ta'lim, sifat, innovatsiya, asoslar, mazmun, tushuncha, bilim, ko'nikma, malaka.*

ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Джабборова Онахон Маннаповна, ЧГПУ, доктор философских
педагогических наук (PhD)

Аннотация. В статье представлены инновационные эксперименты по преподаванию гуманитарных дисциплин в процессе начального образования и представлены рекомендации.

Ключевые слова: *образование, начальное, методология, инновации, знания, навыки, плоды, квалификации.*

FUNDAMENTALS OF THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

Jabborova Onakhon Mannapovna, ChSPU, doctor of philosophical
pedagogical sciences (PhD)

Abstract. The article analyzes the basics of the introduction of innovative technologies in the process of primary education in our country and presents methodological recommendations.

Key words: *technology, education, quality, innovation, fundamentals, content, understanding, knowledge, skills, competence.*

Kirish. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va unda tajribadan o'tgan texnologiyalarni keng qo'llash vazifalari qo'yilgan [1]. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish asoslari tahliliga tortamiz.

Asosiy qism. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ta'lim muhiti. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun uning asoslariga e'tibor berish lozim. Ana shunday asoslardan biri ta'lim muhitidir. Ta'lim muhiti o'qitish va tarbiya jarayonini amalga oshirishning tayanch omili hisoblanadi. Shu sababli ta'lim muhitining innovatsion xususiyatga ega bo'lishi muhimdir. Bu borada quyidagilarga e'tibor berish lozim: a) ta'lim va tarbiya jarayoni amalga oshiriladigan xonalarning pedagogik hamda gigienik talablarga javob berishi; b) mashg'ulotlar jarayonini zamonaviy texnik vositalar va texnologik uslublar bilan ta'minlash; v) ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; g) ta'lim samaradorligini baholash indikatorlarini belgilash.

Aynan mana shunday yondashuvlar asosida ta'lim muhiti innovatsion xususiyatlarga mos ravishda yaratiladi. Buning natijasida ta'lim va tarbiya jarayonining qiziqarliligi,

maqsadligi va qo'yilgan vazifalarning ijrosiga kutilgan darajada etish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Ta'lim muhitini innovatsion xususiyatlarga mos ravishda yaratish muhimdir. Bunda ta'lim beruvchilar va ta'lim muassasasining rahbariyati birgalikda hamda hamkorlikda tadbirlarni amalga oshiradi. Qaerdaki, ijobiy va qulay ta'lim muhiti bo'lmasa, ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun, eng avvalo, o'ziga xos ta'lim muhitini yaratishga e'tibor berish lozim.

Amerikalik pedagog va psixolog Jorj Piaji tomonidan ta'lim muhitining pedagogik va psixologik asoslari ishlab chiqilgan [2]. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning ruhiy ko'tarinkiligi, mashg'ulotlar jarayonida ruhiy munosabatlarning ustuvorligi va tushunarligi, ruhiy his-tuyg'u va sezgining ko'lamiga tayanish, mashg'ulotlar yakunida ruhan toliqmaslik ta'lim muhitining pedagogik va psixologik asoslarini tashkil qiladi. Shu ma'noda ta'lim beruvchi ta'lim muhitini yaratishda ana shu omillarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu masalalarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etiladi. E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ta'lim muhiti asosi muhim xususiyatlarga egadir.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik asosi. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning muhim asoslaridan biri pedagogik asosdir. Unga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayoni pedagogik qonuniyatlarga qat'iy amal qilingan holda tashkil etiladi. Buning uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishda quyidagilarga asoslaniladi: a) ta'lim va tarbiya jarayoni uchun tanlangan innovatsion texnologiyaning pedagogik qonuniyatlarga javob berishi; b) tanlangan innovatsion texnologiyaning ta'lim oluvchilarning yosh, aqliy, jismoniy va estetik xususiyatlariga mos bo'lishi; v) ta'lim beruvchining imkoniyatlari va ta'lim muhiti sharoitlariga mos kelishi; g) ta'lim va tarbiya jarayonining qiziqarli va tezkor o'tkazilishini ta'minlashi. Bu pedagogik asoslar boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim omillari hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun ularga innovatsion texnologiyalarga asoslangan texnik vositalar salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Misol uchun, kompyuterdan foydalangan holda mashg'ulotlarni o'tkazish boshlang'ich sinflarda 30 daqiqadan oshmasligi lozim va har 15 daqiqada o'quvchilarga tanaffus beriladi hamda ular bilan turli gigienik mashqlar bajariladi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslariga rioya qilinadi [3].

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari nisbatan ko'p vaqtni kompyuter yoki mobil aloqasi vositasi bilan munosabatda bo'lishmoqda. Buning natijasida turli ruhiy va jismoniy illatlarga duch kelishayotgani sir emas. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnikalar bilan munosabatda bo'lishning me'yoriy asoslarini tarkib toptirishdan iborat. Negaki, 1-sinfdan boshlab kompyuter savodxonligi mashg'ulotlari amalga oshirilmoqda. Aynan mana shu mashg'ulotlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mazkur pedagogik asoslarni o'zlashtirishi muhimdir. Buning uchun mutaxassislik o'quv fanlari innovatsion texnologiyaning pedagogik asoslari bo'yicha tegishli mavzular bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida barcha o'quv fanlari bo'yicha professor-o'qituvchilar innovatsion texnologiyalarning turlaridan unumli foydalanishga xarakat qilishadi. Lekin buning uchun, eng avvalo, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslariga rioya qilinishi kerak. Aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik asoslarni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi-

larining kelgusi faoliyatida muhim o'rin tutadi va u kasbiy kompetensiyaning tarkiblaridan biri sifatida qabul qilinishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik asoslari bo'yicha nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi. Bunda, ayniqsa, «Talabalar akademiyasi» vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ana shu masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqotchilikka jalb etish kutilgan samarani beradi. Umuman, bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning yangicha yondashuvlarga asoslangan pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Shu sababli mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ko'nikma tarzida o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish asosi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki ko'pchilik talabalar texnik vositalardan foydalanishni bilgani holda, ularga, asosan, ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish asoslari bo'yicha etarli ko'nikmaga ega emas. Shu jihatdan, bu borada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi: a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini turli, qulay va oson innovatsion texnologiyalar bilan tanish-tirish; b) innovatsion texnologiyalarning texnik va pedagogik asoslarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'rgatish; v) tanlangan innovatsion texnologiyaning ijobiy va salbiy xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish; g) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini tadriijiy tarkib toptirib borish [4]. Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonining amaliy mashg'ulotlari va to'garaklari imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning innovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini o'zlashtirish uchun mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, professor-o'qituvchilar imkon qadar har bir talaba bilan individual tarzda innovatsion texnologiyalar asoslari bo'yicha tadbirlarni amalga oshirib borishi muhimdir. Bunda talabalar tashabbuslariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish asoslari bo'yicha topshiriqlar berish, ularni turli jihozlar va ishlanmalar yaratishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mustaqil ta'lim vositasida innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmasini o'zlashtirish qiziqarli va amaliy jihatdan samarali kechadi. Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning qo'llay olish asoslari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Xulosa. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ta'lim muhiti asosi, pedagogik asosi va ularni qo'llay olish asosi mavjud. Mazkur masalalar ko'nikma shaklida o'zlashtirilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi.

Adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi: www.Ziynet.uz
2. Yershova N. va boshq. Psixologiya. - T., 2021.
3. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. - T., 2021.
4. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. - T., 2023.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Камилова Н.Г., Хасанбекова А.

Ценностно-нормативная система подростков – детерминанта девиантного поведения.....3

Камилова Н.Г., Анварова Н.

Психологические детерминанты буллинг-поведения среди младших школьников и подростков.....8

Aripov Sh.O.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash metodlari.....13

Xusanov F.O.

Pedagogik faoliyatlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xosligi.....18

Ким И.Н.

Возможности и проблемы использования цифровых технологий в дошкольном образовании.....23

Nurmatova I.T.

Maktangacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishda musiqiy teatr faoliyatlarining roli.....25

Гафурова Н.М.

Различные модели темперамента: особенности и сходства.....29

Matupayeva Sh.Z.

Inklyziv ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'limda fanlarini o'qitishning didaktik imkoniyatlari.....34

Qaraxnova L.M.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda xalqaro baholash tadqiqotlari dasturidan foydalanishning samaradorligi.....38

Vaxobov A.A.

Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisining harbiy pedagogik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishi.....43

Kuchkinov A.Yu.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida ta'lim asosida ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish modeli.....49

Оразбаева Г.Ж.

Проблемы самоактуализации подростков в современном обществе.....53

Менгаров Х.Э.

О методических аспектах понятия «предельного перехода».....57

Odilbekov M.M.

Xususiy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....62

Соатова Ш.А.

Развитие лидерства через активное участие студентов в общественной жизни университета.....67

Jabbarova O.M.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish asoslari.....71

Ochilov F.I.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida rivojlantiriladigan tabiiy-ilmiy tafakkur mazmuni.....74

Shoyimova Sh.S.

Kasbiy so'nish shifokor-pedagog shaxsining ijtimoiy-psixologik muammolaridan bir sifatida.....79

Sangindikova N.J.

Iroda sifatini eksperimental o'rganish.....82

Yusupova K.N.

Dars jarayonida kreativ ta'lim muhitini tashkil etishning ahamiyati.....86

Камилова А.Б.

Педагогические аспекты формирования регулятивных действий у учащихся начальных классов.....90

Mirzaev A.M.

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kursantlar belbog'li kurash bo'yicha tayyorgarlikni oshirishning innovatsion usullarini o'rganish imkoniyatlari.....94

Наримбетова З.А.

Общие вопросы методики обучения решению задач в начальных классах.....98

Jabbarov Z.R.

Harbiy ta'limda inovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini takomillashtirish.....102

Umarova Z.A.

Maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning turlari va ularni bartaraf etish.....108

Tilavova S.B.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirishda Steam yodashuv.....113

Капалыгина И.И., Шестирева Н.Г.

Педагогические условия формирования асертивных свойств личности в социальной сети.....117

Hasanov T.A.

Ijtimoiy va huquqiy xatar guruhiga kiruvchi yoshlarni ijtimoiy himoya qilish yo'nalishlari.....121

Yakubova S.K.

Yengil dizartriya bolalarda monologik nutqini rivojlantirish.....127

Turakulov B.N.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekopsixologik kompetentligini takomillashtirish muhim pedagogik muammo sifatida.....131

Xusnetdinov U.I.

Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniytni shakllantirish.....136

Karimjonov A.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion pedagogik tajriba faoliyatini o'rganish.....141

Nurgizarova Z.B.

Pedagogik ta'limda psixologik tasvirini ochib berish mahorati.....145

Jabbarova O.M., Sapparbaeva D.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi.....148

Musurmonova M., Kumush Z.N.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda foydalanadigan o'quv vositalari.....153

Tashpulatova D.M.

Maktab ta'limida gumanitar fanlarni integratsion o'qitish metodikasi.....156

Sultonova A.M.

Malaka oshirish tinglovchilari uchun fanlarda integratsiyalashgan ta'lim.....160

Kalimbetov B.I.

Talabalarni mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish.....163

Mamatova A.M.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyati tarkibi.....167